

DEVISSON VA JERMER TAJRIBALARI

Andijon Davlat Pedagogika instituti

Aniq fanlar kafedrasи o'qituvchisi

Aslonov Xayrullo shukrullo o'g'li

Fizika va astranomiya yo'nalishi 301 – guruh talabasi

Nematullayev Abdulaziz Murodjon o'g'li

Jaloldinov Izzatullo Xusanboy o'g'li

Annotatsiya: Maqolada Devisson va Jermalar tajribalari kengroq yoritilib hamda tajribalarni qanday o'tkazganligi haqida yozilgan. Tajribalardan olingan formulalar haqida batafsil tushuntirilgan.

Kalit so'zlar: Kristall, potensiometr, intensivlik, difraksiya, ion, monokristall galvanometer.

Devisson va Jermer tajribasi. 1925-yilda «Bell telefon» laboratoriyasining xodimlari K.Devisson va K.X.Kunsman ikkilamchi elektronlar chiqishi hodisasini o'rGANISHDI. So'ng bu hodisani o'rGANISHNI K. Devisson va L. Jermer davom ettirdi. Bu tajribada nikel kristaliga tushurilgan elektronlar dastasi ta'siri natijasida, ikkilamchi elektronlaming chiqishini kuzatishdi. Bir kuni tasodifan nikel oksidlanadi. Oksidlanishni yo'qotish uchun nikel plastinkasi qattiq qizdiriladi. So'ng tajribani bu kristall nishon bilan qayta bajarishganda natija butunlay boshqacha chiqdi. Plastinka uzoq qizdirilishi tufayli mayda kristallar o'rnini yirik monokristallar egallagan edi. Ikkilamchi elektronlarning chiqishi oldingi tajribadagilar kabi istalgan burchakda bo'ldi, biroq ayrim burchaklarda siqilgan elektronlarning soni keskin ko'payib ketdi. $K = 54$ eV energiyaga ega bo'lgan elektronlaming $\varphi = 50^\circ$ burchakdagi sochilgan ikkilamchi elektronlaming intensivligining taqsimoti ko'rsatilgan. Devisson va Jermer elektronlaming to'lqin uzunligini aniqlash uchun rentgen spektrometri g'oyasidan foydalandilar. Tajribada chizmasi 2.1-rasmda keltirilgan. Rentgen trubkasi elektron to'pi bilan almashtirildi. AT-katod, u nikel kuchlanishi yordamida qizdiriladi. Katoddan uchib chiqqan elektronlar dastasi o'z navbatida tezlantiruvchi potensial U, bilan tezlantiriladi. Tezlantirish kuchlanishini miqdori P-potensiometr yordamida bajariladi. Potensiometr yordamida to'pdan chiqqan elektronlaming tezligi boshqariladi. Elektronlar kristall sirtiga tushgandan so'ng, ma'lum burchaklarda qaytadilar. Qaytgan nurlar elektron detektori (Faradey silindri) bilan qayd qilinadi va I tok miqdori galvanometr yordamida o'lchanadi. Elektron to'pi, kristall va Faradey silindri vakuurnga joylashtiriladi. Tajriba quyidagicha olib borildi. Kristallga tushayotgan elektron nurlarining tezligi tezlantiruvchi kuchlanish yordamida o'zgartiriladi va unga mos ravishda Faradey silindridagi tok galvonometr bilan


o'lchanadi. Bu holda kristall sirtiga tushayotgan elektronlarini burchagi o'zgarmay qoladi. Qurilmaning elektr sxemasi diodning volt-amper xarakteristikasiga o'xshash monoton bo'lishi kerak edi. Biroq unday emasligi ko'rinish turibdi. Shu sababli) Devisson-Jerner tajribasini natijalarini tushuntirish uchun de-Broyl g'oyasini jalg qilish kerak bo'ldi. Tajribalaming birida elektronlar dastasining energiyasi $K=54\text{eV}$ bo'lganda sochilgan (qaytgan) elektronlaming intensivligini maksimumi $\varphi = 50^\circ$ da ro'y berdi. Elektronlaming impulsi $p = \sqrt{2m_0K}$ ni bilgan holda erkin elektronning de-Broyl to'lqin uzunligini quyidagi formuladan topamiz.

$$\lambda = \frac{h}{p} = \frac{6.62 \cdot 10^{-34} \text{ Js}}{\sqrt{2 \cdot 9.11 \cdot 10^{-31} \text{ kg} \cdot 54 \cdot 1.6 \cdot 10^{-19} \text{ J}}} \cdot 10^{10} \frac{\text{A}}{\text{m}} = 1.67 \text{\AA}$$

Bu elektron bilan bog'langan to'lqinning de-Broyl to'lqin uzunligidir.


Ikkinci tomondan kristall tekisligida to'lqin ilifraksiyasi hodisasiga asoslangan holda Bregg metodi yordamida davri $d = 0.91\text{\AA}$ ga teng bo'lgan nikel kristallida ro'y bergan elektronlar difraksiyasini birinchi tartibdagi maksimumi ($n=1$) uchun,

$$\lambda = 2ds \sin \theta = 2 \cdot 0.91 \cdot \sin 65^\circ = 1.65 \quad (1)$$



1 - rasm

Devisson va Jermer tajribalari va yana boshqa manbalarda yozilishicha Zarralarning to'lqin xususiyati yaqqol namoyon boladigan tajribalar Devisson va Jermer tomonidan o'tkazilgan. Bu tajribalarda nikel monokristalidan qaytgan elektronlar dastasining difraksiyasi kuzatilgan. Devisson va Jermer tajribalari sxemasi




2 - rasm

2-rasmda keltirilgan. Elektron pushkada qizdirilgan A simdan chiqayotgan

elektronlar dastasi A va B elektrodlar orasiga qo‘yilgan U potensiallar farqida tezlatiladi. B elektrod tirqishidan o‘tgan elektronlar C nikel monokristalliga tushadi va unda sochiladi. Sochilgan elektronlarning intensivligi G galvanometr yordamida o‘lchanadi. Birinchi tajribada nikel monokristaliga energiyasi bir necha o‘n elektronvolt bolgan elektronlar yo‘naltiriladi, so‘ng elektronlarning kristall sirtiga tushish burchagini o‘zgartirib, kristalldan qaytgan elektronlar dastasi intensivligining o‘zgarishi qayd qilinadi. Qaytgan elektronlar dastasi intensivligining sirpanish burchagi a ga bogliqligi 3.5-rasmda tasvirlangan.

Experimento de Davisson e Germer

► Esquema do aparato



Elétrons com $E_c = eV$, incidem no cristal C e são espalhados em um ângulo θ

► Resultados






Fig. 9. Curves of collector current vs. bombarding potential—showing the development of the "54 volt beam." Azimuth {111}.

Com o coletor (D) em $\theta = 50^\circ$ observa-se um intenso feixe para potencial acelerador $V = 54V$

3 – rasm

Rasmdagi diagrammada qaytgan elektronlar intensivligining maksimumi a_0 burchakka to‘g‘ri kelishi ko‘rsatilgan (elektronlar parallel tekisliklardan qaytganda sirpanish burchagi $\alpha = \frac{\pi}{2} - 0$ ifodaga teng bo‘ladi, θ — elektronlarning kristall sirtiga tushish burchagi). Ikkinci tajribada elektronlarning nikel monokristalli sirtiga tushish burchagini o‘zgartirmasdan kristalldan qaytgan elektronlar dastasi intensivligi tushayotgan elektronlar energiyasiga (ya’ni tezlatuvchi potensiallar farqini o‘zgartirib turgan holda) bogliq ravishda o‘lchandi. Kristalldan qaytgan elektronlar dastasining intensivligi galvanometr ko‘rsatgan tok kuchiga qarab o‘lchangan. Tajriba natijalari quyidagi diagrammada keltirilgan. Bu diagrammada egri chiziqlar elektronlarning sochilishida intensivliklarining taqsimlanishini ko‘rsatadi. Absissa o‘qiga ning qiymatlari, ordinata o‘qiga sochilgan elektronlarning nisbiy intensivliklari qiymatlari qo‘yilgan.



4 – rasm

Devisson va Jermer tomonidan 1927-yilda o'tkazilgan bunday tajribalar natijalari elektronlar to'lqin xossalaringin namoyon bo'lishi sifatida tushuntirildi va bunatijalar de-Broyl formulasining to'g'riligini miqdoriy tasdiqladi. Elektron to'lqinlarining difraksiyasi nazariy tahlil qilinganda, elektronlar difraksiyasi rentgen nurlarining difraksiyasi bilan mos kelishi aniqlangan.

Devisson va Jermer tajribalarida elektron to'lqinlar difraksiyasini Bregg usulidan foydalanib kuzatilgan. Kristalldan qaytgan elektronlarning to'lqin uzunligi

$$\lambda = \frac{2\pi\hbar}{\sqrt{2meU}} \quad (2)$$

formula orqali hisoblanadi. Bu formulada $m = 9,11 \cdot 10^{-31}$ kg — elektron massasi, $e = 1,6 \cdot 10^{-19}$ Kulon - elektron zaryadi, farqi. Bunday kattaliklarni (2) formulaga qo'yib hisoblaganda, formula quyidagi ko'rinishda yozilishi mumkin:

$$\lambda = \left(\frac{1.226}{\sqrt{U}} \right) nm \quad (3)$$

Kristalldan qaytgan elektronlar dastasi intensivligining maksimumi kuzatiladigan burchak Vulf-Bregg formulasidan aniqlanadi. Formuladan aniqlangan burchakni tajribada maksimum kuzatilgan a_0 burchak qiymati bilan taqqoslash de-Broyl formulasini tajriba natijalari bilan taqqoslashga imkon beradi. De-Broyl formulasi tajriba natijalarida to'liq tasdiqlangan. Yuqorida qaralgan ikkinchi tajribada siljish burchagi a o'zgarmas bo'lganda qaytgan elektronlar intensivliklari maksimumlari:

$$n\lambda_n = 2ds\sin\alpha \quad (n = 1, 2, 3, \dots) \quad (4)$$

shart bajarilganda kuzatiladi. (4) formulada a - siljish burchagi, d - kristallda atom tekisliklari orasidagi masofa, n — kristalldan qaytgan elektronlar intensivliklari

maksimumlarining tartib raqami, λ - qaytgan elektronlar dastasining de-Broyl to‘lqin uzunligi. Nikel kristalli uchun d ning qiymati rentgen nurlarining difraksiyasini kuzatish tajribalaridan aniqlanadi. (2) formula hisobga olinganda (4) dan potensiallar farqi uchun quyidagi ifodani yozish mumkin bo‘ladi:

$$\sqrt{U} = \left(\frac{n\pi}{dsina} \right) \frac{1}{\sqrt{2em}} n = const n \quad (5)$$

formuladan ko‘rinadiki, qaytgan elektronlar intensivliklarining qiymatlarida hosil bo‘ladi, ya’ni maksimumlar oralig‘i bir xil bo‘lib, \sqrt{U} ga teng. Maksimumlarning bir xil oraliqda hosil bo‘lishi elektronlarning sochilib qaytishini to‘lqin manzarasi to‘g‘ri ifodalashini ko‘rsatadi. (5) formuladagi bog‘lanish tajribada tasdiqlanadi. Yuqoridagi keltirilgan diagrammada (5) formula orqali nazariy hisoblashlardan hosil qilingan maksimumlar vaziyati strelkalar bilan ko‘rsatilgan, tajribada hosil qilingan maksimumlar vaziyati esa to‘lqin manzaradagi maksimumlar shaklida tasvirlangan. Nazariy hisoblashlardan hosil qilingan maksimumlarning vaziyati n ning katta qiymatlarida ($n = 6,7,8,\dots$) tajribada kuzatilgan maksimumlar vaziyatiga mos keladi. n ning kichik qiymatlarida esa nazariy va tajribaviy maksimumlar vaziyatlari bir-biridan farq qiladi. Lekin elektronlar energiyasi ortib borishi bilan bu farq kamayib boradi. Tajribaviy va nazariy maksimumlar orasidagi farqning sababi Bete tomonidan tushuntirildi. Bete kristallarda de-Broyl elektron to‘lqinlari uchun sindirish ko‘rsatgichini hisobga olish kerakligini ko‘rsatdi. Buni quyidagicha tushuntirdi. Metalining kristall panjarasidagi musbat zaryadli ionlar va manfiy zaryadli elektronlar oralig‘i fazaviy mos kelmaydi. Shuning uchun metallda elektr maydoni mavjud bo‘lib, uning potensiali davriy ravishda o‘zgarib turadi. Butun fazo uchun bu potensialning o‘rtachasini U_0 bilan belgilash mumkin. Bunday o‘rtacha potensial metallning ichki potensiali deyiladi. Agar tashqi fazo potensiali nolga teng deb qaralsa, elektronlar metall ichkarisida ushlanib turishi uchun U_0 kattalik musbat

bo‘lishi kerak. Haqiqatdan ham bunday holda metall ichkarisida elektronning potensial energiyasi manfiy bo‘ladi, bunda elektron xuddi chuqurligi U_0 bo‘lgan potensial chuqurlikda bo‘lgandek bo‘ladi. Shunday qilib, tezlatilgan elektronning vakuumdan metallga o‘tishida sindirish ko‘rsatgichining ortishi ichki potensialning mavjudligi orqali tushuntiriladi. Elektron tashqaridan metallga tushayotgan bo‘lsin. Agar elektronni tezlatayotgan potensial U bo‘lsa, elektronning tezligi $v_1 \sqrt{U}$ bo‘ladi. Metall ichkarisida elektronning tezligi metalining ichki potensiali U_0 ning ta’sirida ortadi, ya’ni $\vartheta \sim \sqrt{U + U_0}$ bo‘ladi. Shuning uchun metallga kirishda elektronning trayektoriyasi va u bilan bog‘liq bo‘lgan de-Broyl to‘lqinlari sinadi. Bunday jarayon uchun metallning nisbiy sindirish ko‘rsatgichi quyidagicha ifodalanadi: $n_{21} = \frac{v_2}{v_1} = \sqrt{1 + \frac{U_0}{U}}$ bunda v_2 — elektronning metalldagi tezligi, v_1 — elektronning va kuumdagisi tezligi, n_{21} — elektron tolqinlarining sindirish ko‘rsatgichi. $n_{21} =$

n deb belgilab olamiz.

Xulosa: Bu maqolani yozishda Devisson va Jermerning ko'p tajribalarini o'rgandim. Tajribalarini bajarib xulosa, natijalarni oldik. Hozirda shu fanda ko'p izlanishlar olib borilayapti. Yuqorida keltirilgan ma'lumotlardan foydalanib biz kabi talabalarning qiziqishlarini yanada oshirish, zarur malaka va ko'nikmalarga ega bo'lishda hamda biz talabalarda fanga , ilmiy – tadqiqot ishlariga qiziqishlarimizni ortishida katta yordam bo'ladi.

Adabiyotlar ro'yxati:

1. G. Axmedova, O.B. Mamatqulov, I Xolbayev – Oliy o'quv yurtlarining 5140200 – fizik bakalavr ta'lim yo'nalishi uchun o'quv qo'llanmasi “ISTIQLOL” Toshkent – 2013
2. SHaripov M.Z, Vahobova M.A Islomov U.N Atom va yadro fizikasi o'quv uslubiy qo'llanma Toshkent – 2020
3. Yuldashev U, N.A TAylanov, B.I Hamdamov Atom va yadro fizikasi – Toshkent “Samo – Standart” 2019
4. <https://kompy.info>
5. <https://uz.m.wikipedia.org>